

**“TASDIQLANGAN”**

**“Olmaliq KMK” AJ  
Kuzatuv kengashining  
2022-yil 12 iyuldagi  
17- sonli Bayonnomasi**

**“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning  
yetkazib beruvchilarini  
(ta’minotchilarini/pudratchilarini) mas’uliyatli  
tanlash uchun ta’minot (pudrat) zanjirlarini lozim  
darajada tekshirish bo‘yicha Siyosati”**

---

## 1-bob. Hujjatning maqsadi

1. “Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda - Kombinat deb yuritiladi) yetkazib berish zanjirining barcha bosqichlarida xizmatdagi odob-axloq normalari, xomashyo, tovar-moddiy boyliklar, ishlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyatli tanlash zaruratini hisobga olgan holda, barqaror biznes yuritish tamoyillariga rioya qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas‘uliyat hamda korporativ boshqaruv tizimi (keyingi o‘rinlarda - YESG deb yuritiladi) masalalariga ustuvor e‘tibor berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2. “Olmaliq KMK” AJ yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyatli tanlash bo‘yicha siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan qoida va tamoyillar, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va ixtiyoriy ravishda qabul qilingan boshqa majburiyatlariga muvofiq Kombinatning yetkazib berish (ta‘minot) zanjirini doimiy ravishda to‘liq tekshirish majburiyatini o‘z zimmasiga olganligini tasdiqlaydi.

3. Ushbu Siyosat, uning to‘liq va tasdiqlangan matni Kombinatning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasiga joylashtirish, Kombinatning barcha shartnoma (bitim) va kontraktlari matniga shuningdek boshqa axborot va muloqot kanallaridan foydalangan holda Kombinat va uning tizimidagi barcha xodimlarga ularni o‘qitish va mehnat shartnomalari va fuqaroviy shartnomalariga tegishli qoida va majburiyatlarni kiritish orqali Kombinatning barcha hamkorlari, Yetkazib beruvchilari (ta‘minotchilari) hamda Kombinat xodimlarining e‘tiboriga havola etadi.

4. Siyosat strukturasi Kombinatning Yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyatli tanlashga oid ustuvor yo‘nalishlarni, shuningdek yetkazib berish (ta‘minot) zanjirining barcha bosqichlarida, shu jumladan Kombinat tizimidagi korxonalarining o‘z Yetkazib beruvchilari (ta‘minotchilari) bilan munosabatlarda yuzaga keladigan xavf va xatarlarni boshqarishga bo‘lgan yondashuvini aks ettiradi.

5. Xususan:

Ushbu Siyosatning 5.1. bo‘limida Kombinatning Yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyatli tanlashga, shu jumladan **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining** (keyingi o‘rinlarda - IHvaT tashkiloti deb yuritiladi) mojarodan zarar ko‘rgan hududlardan va yuqori xavfli hududlardan foydali qazilmalarni mas‘uliyatli yetkazib berish (ta‘minot) zanjirlarini har tomonlama tekshirish bo‘yicha ko‘rsatmalariga muvofiq xom ashyo yetkazib berish (ta‘minot) bo‘yicha yondashuvini tavsiflaydi. IHvaT tashkilotining rahbarlik ko‘rsatmalari);

Ushbu Siyosatning 5.2., 5.3. hamda 5.4. - bo‘limlarida Kombinatning mas‘uliyatli yetkazib berish (ta‘minot) zanjirini boshqarish uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ESG jihatlarini tartibga soladi;

Ushbu Siyosatning 6-bo‘limida asosiy e‘tibor IHvaT tashkilotining ko‘rsatmalari 1-ilovasida bayon etilgan xavf va xatarlar asosida yetkazib berish (ta‘minot) zanjiri “IHvaT tashkiloti modeli”ning besh bosqichli modeli asosida tashkil etilgan Kombinatning barcha yetkazib berish (ta‘minot) zanjiri bo‘yicha yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyatli tanlashni ta‘minlash uchun Kombinatni kompleks tekshirishni boshqarish tizimiga qaratiladi.

6. Ushbu Siyosat maqsadlarida quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

**ESG** – qisqartmasi **“Environmental”** - atrof-muhit, **“Social”** - ijtimoiy muhit va **“Governance”** - korporativ boshqaruv degan ma’noni anglatadi. Ushbu uch komponentga ma’suliyat bilan munosabatda bo‘lish sayyoramiz farovonligi va muhofazasini yaxshilash bo‘yicha BMT kun tartibida belgilangan barqaror rivojlanish yoki barqaror rivojlanish maqsadlariga - BRMLarga erishishga xizmat qiladi. Keng ma’noda, ESG - bu barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq tadbirkorlik faoliyati, ya’ni atrof-muhitga, jamiyatga mas’uliyatli munosabat va tashkilotlarda boshqaruv standartlariga urg‘u berishdir.

**DDMS** - qisqartmasi **“Due Diligence Management System”** (Kompleks tekshiruvni boshqarish tizimi) – O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 15-moddasiga muvofiq, Kontragentlar bilan shartnoma (bitim) tuzish to‘g‘risidagi qarorni majburiy tartibda har tomonlama o‘rganib chiqib, lozim darajadagi ehtiyotkorlik choralarini qo‘llagan holda qabul qilish.

**lozim darajadagi ehtiyotkorlik** - Kontragentni tanlashdan avval Kombinat tomonidan majburiy tartibda o‘tkaziladigan o‘rganish ishlari majmui bo‘lib, jumladan quyidagi o‘rganish tadbirlarini o‘z ichiga qamrab oladi: kontragentning soliq organlarida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tganligini, ishchanlik obro‘sini, ishlab chiqarish quvvatlari (bazasi) va malakali xodimlarining mavjudligini, moliyaviy ahvolini va shartnoma (bitim) bo‘yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tekshirishni o‘z ichiga olgan soliq to‘lovchining bir qator harakatlari;

**EITI – Extractive Industries Transparency Initiative** - (Qazib olish/konchilik sanoati korxonalarini faoliyatining ochiqlikini ta’minlash tashabbusi)

## **2-bob. Hujjatning amal qilish sohasi**

7. Ushbu Siyosat Kombinat ehtiyojlari uchun xom ashyo resurslari, tovar-moddiy boyliklar, uskuna va jihozlar, instrumentlar, ehtiyot qismlarni yetkazib berish, shuningdek ishlar va xizmatlar ko‘rsatish zanjirida yetkazib beruvchilar (ta’minotchilar), pudratchilar va subpudratchilarni (keyingi o‘rinlarda - Yetkazib beruvchilar/ta’minotchilar deb yuritiladi) tanlash bilan bog‘liq faoliyatning barcha soha va yo‘nalishlarini qamrab oladi va ularga tadbiriq etiladi.

8. Siyosat qoidalari **“Olmaliq KMK”AJ** tashkiliy tuzilmasidagi barcha korxonalar, ijro apparati bo‘linmalari hamda egallab turgan lavozimi yoxud mavqeidan qat’iy nazar barcha xodimlarga, shu jumladan Kombinat boshqaruv a’zolariga nisbatan ham qo‘llanadi (keyingi o‘rinlarda birgalikda **“Olmaliq KMK” AJ** deb nomlanadi), bunda qonunchilikda belgilangan cheklovlar va talablarni hisobga olgan holda, Kombinat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqariladigan yoxud bilvosita ustav kapitalining 50 foizidan ortiq qismiga Kombinat egalik qiladigan korxonalar tushuniladi.

9. Yetkazib beruvchilarga (ta’minotchilarga) nisbatan qo‘yiladigan talablar va qoidalar Kombinatning quyidagi ichki normativ hujjatlarida:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosat;
- Odob-axloq Kodeksi;
- Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida Nizom;

- Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma;
- Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma;
- Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish hamda Xizmatdagi odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Reglament kabi ichki normativ hujjatlarda batafsil aks ettirilgan.

### **3-bob. Umumiy ma‘lumot**

10. O‘zbekiston Respublikasining yetakchi kon-metallurgiya Kombinatlaridan biri va dunyodagi eng yirik xom-ashyo va qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilardan biri sifatida Kombinat o‘z xodimlari va jahon hamjamiyati oldidagi nufuzi va ishchanlik obro‘si uchun odob-axloq normalari va sanoat ichidagi barqaror biznes tamoyillariga rioya qilish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini tan oladi.

Aynan shuning uchun ham “mas‘uliyat” Kombinat va uning ahil mehnat jamoasining eng oliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

11. “Olmaliq KMK” AJning ushbu Siyosatida belgilangan yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyat bilan tanlash bo‘yicha majburiyati eng avvalo o‘zining kundalik operatsion faoliyatidan boshlanadi hamda “Olmaliq KMK” AJning yetkazib beruvchilariga (ta‘minotchilarga) nisbatan ham to‘liq joriy etiladi.

12. “Olmaliq KMK” AJ o‘z yetkazib beruvchilaridan (ta‘minotchilaridan) ushbu Siyosatning 5-bo‘limida qayd qilingan Yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyat bilan tanlash tamoyillari va standartlari bilan birgalikda ko‘rib chiqish zarur bo‘lgan Kodeksga ham qat‘iy rioya etishlarini kutadi.

13. “Olmaliq KMK” AJ uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga intiladi va basharti zarurat bo‘lganda, Yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) o‘qitishni ham nazarda tutishi mumkin va (yoxud) tegishli ilg‘or talablarga javob berish doirasida o‘z xodimlarining malakasi va bilimlarini oshirish bo‘yicha tashabbuslarni moddiy jihatdan qo‘llab quvvatlaydi.

14. Zaruratga qarab, “Olmaliq KMK” AJ Yetkazib beruvchilarning (ta‘minotchilarning) Kodeksda belgilangan talab va qoidalarga muvofiq bo‘lish imkoniyatini oshirish maqsadida samarali, mutanosib hamda natijalarini o‘lchash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarni yaxshilash rejalarini ishlab chiqish maqsadida Yetkazib beruvchilar (ta‘minotchilar) hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

15. Ushbu Siyosatda “Olmaliq KMK” AJning Yetkazib beruvchilariga (ta‘minotchilariga) undagi talablarning bajarilishini ta‘minlash va muayyan sohada yanada mas‘uliyatli yetkazib berish (ta‘minot) zanjirlarini yaratish bo‘yicha birgalikda ishlash uchun talablar va tavsiyalar ifodalangan.

16. Operatsion faoliyatdan tashqari Yetkazib beruvchilarni (ta‘minotchilarni) mas‘uliyatli tanlash bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha shaffof va ochiq muloqotni ta‘minlash maqsadida, Kombinat barcha manfaatdor tomonlar, korxonalar va tashkilotlar, jamoatchilik tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar vakillari bilan faol hamkorlik qiladi.

17. Alohida e‘tiborga molik bo‘lgan jihat bu Kombinatning mustaqil Komplayens-nazorat xizmati faoliyatini samarali tashkil etish zarurati bo‘lib, bu ichki

va tashqi manfaatdor tomonlar uchun o'z shikoyat, ariza va murojaatlarini erkin yuborish va ko'rib chiqishning samarali mexanizmi vazifasini o'tab beradi, bunday bog'lanish mexanizmi (aloqa kanali) murojaatchilarga Kombinat Yetkazib beruvchilarining (ta'minotchilarning) mas'uliyatli tanlovi to'g'risidagi har qanday xavf va xatarlar haqida maxfiy, ishonchli va xavfsiz shaklda o'z xabar va ma'lumotlarini yuborish imkoniyatini taqdim etadi. Bunday aloqa shaklida, murojaatchiga nisbatan har qanday tayziq, bosim yoxud jazo (sanksiya) choralari qo'llash imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanadi.

#### **4-bob. Normativ-huquqiy baza**

18. Ushbu Siyosat IHvaT tashkilotining rahbariy tamoyillari kabi xalqaro umume'tirof etilgan standartlar, tashabbuslar hamda Yetkazib beruvchilarni (ta'minotchilarni) mas'uliyatli tanlashning eng ilg'or tajriba modellari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlari talablariga hamda qo'llaniladigan xalqaro qonunlar va shartnomalar talablariga to'liq javob beradi.

#### **5-bob. "Olmaliq KMK" AJning Yetkazib beruvchilarini (ta'minotchilarini) mas'uliyatli tanlash tamoyillari va standartlari**

##### **5.1. Yetkazib beruvchilarni (ta'minotchilarni) mas'uliyatli tanlash**

###### **5.1.1. Inson huquqlari**

Inson huquqlariga salbiy ta'sir qilish xavfini, shu jumladan mojaroga ta'sir qiluvchi va yuqori xavfli hududlardan xom ashyoni qazib olish, sotish, qayta ishlash va import/eksport qilish bilan bog'liq mojarolar, xavf va xatarlar ehtimolini tan olgan holda, Kombinat uning yetkazib berish (ta'minot) zanjirlarida inson huquqlarining buzilishi yoxud tor doiradagi shaxsiy manfaatlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaydi va amaliy yordam ko'rsatmaydi yoxud huquq buzilishi holatining har qanday shaklidan foyda yoki boshqa shakldagi naf ko'rishdan saqlanadi. Jumladan, ular sirasiga:

shafqatsiz, g'ayriinsoniy va kamsituvchi muomala, qiynoqlarning har qanday shakli;

majburiy mehnatning har qanday shakli;

bolalar mehnatini ekspluatatsiya qilishning eng yomon shakllari;

jahon amaliyotida keng tarqalgan jinsiy zo'ravonlik kabi, inson huquqlarining qo'pol ravishda buzilishi va boshqa shakldagi haqorat va kamsituvchi muomala amaliyoti;

harbiy jinoyatlar sodir etish yoxud xalqaro gumanitar huquq qoidalarining boshqa shakl va ko'rinishdagi jiddiy buzilishi holatlari, insoniyatga qarshi jinoyatlar yoxud genotsid kabi jinoyatlar kiradi.

###### **5.1.2. Xavfsizlik xizmatlari**

Kombinatning yetkazib berish (ta'minot) zanjiri doirasida, shu jumladan xom ashyo materiallarini qazib olish, tashish, sotish, qayta ishlash va eksport/import qilish bilan bog'liq holatlar, noqonuniy soliqqa tortish yoxud tovlamachilikda ishtirok etishi, nazoratni amalga oshirishi mumkin bo'lgan davlat yoxud xususiy xavfsizlik xizmatlari yoxud affillangan shaxslarni Kombinat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoxud

bilvosita shaklda qo‘llab-quvvatlash va dastaklanishiga o‘z faoliyatida yo‘l qo‘ymaydi.

Basharti, Kombinat yoxud yetkazib berish (ta‘minot) zanjiridagi biron bir tashkilot tegishli shartnomalar (bitimlar/kontraktlar) asosida davlat yoxud xususiy xavfsizlik xizmatlarini jalb qilsa, Kombinat xavfsizlik xizmatlarini yollash tartib taomillari inson xavfsizligi va huquqlari bo‘yicha Ixtiyoriy prinsiplar (tamoyillar)ga muvofiq yollanishini ta‘minlashga intiladi, shuningdek o‘z ta‘minot zanjiridagi yetkazib beruvchilardan (ta‘minotchilardan) ham eng kamida aynan shunday yondashuvni kutadi.

### **5.1.3. Moliyaviy jinoyatlar va shaffoflik**

Kombinat pora berish yoxud olish, pora berishda vositachilik qilish, tijorat poraxo‘rligi, tijorat poraxo‘rligida vositachilik qilish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek xalqaro huquqning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha umume‘tirof etilgan qonun talablarini buzadigan boshqa harakatlarni sodir etmaslik majburiyatini o‘z zimmasiga oladi, shuningdek Kombinat xodimlari, affillangan shaxslari yoxud vositachilari tomonidan bunday salbiy holatlarning sodir etilmasligi uchun vakolatlari doirasida o‘zining barcha imkoniyatlarini safarbar etadi.

Qazib olish tarmoqlaridagi shaffoflik va ochiqlik Tashabbusi (EITI) talablariga muvofiq xom ashyoni qazib olish, savdo qilish, qayta ishlash, tashish yoxud eksport/import qilish munosabati bilan davlat idoralari, ularning mansabdor shaxslari hamda davlat xizmatchilari foydasiga amalga oshirilgan har qanday to‘lov va/yoxud xarajatlar haqida ma‘lumotlarni keng ommaga matbuot hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali oshkor qilishga intiladi.

### **5.1.4. Kombinatning manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorligi**

Kombinat xavf va xatarlarni boshqarish uchun, shu jumladan xom ashyoni qazib olish, sotish, qayta ishlash va import/eksport qilish bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish yoxud yetkazib berish (ta‘minot) zanjirida davlat yoxud xususiy xavfsizlik xizmatlarining mavjudligi bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish hamda yetkazib berish (ta‘minot) zanjiri faoliyatiga jalb qilingan, ko‘rsatib o‘tilgan xavfsizlik xizmatlariga to‘lovlar xususida shaffoflik, mutanosiblik, nazorat tartib taomillarini amalga oshirilishini ta‘minlash uchun tashqi manfaatdor tomonlar va tegishli davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar faollari bilan o‘zaro yaqin hamkorlik aloqalarida bo‘lish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Basharti, Kombinatning Yetkazib beruvchisi (ta‘minotchisi) tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillardan birortasining buzilganligi fakti aniqlansa, bunday xatarni kamaytirish, shuningdek, aniqlangan xatarlar yoxud qabul qilingan tuzatuvchi chora-tadbirlar samaradorligi va natijadorligidan kelib chiqib, bunday Yetkazib beruvchi (ta‘minotchi) bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini vaqtincha to‘xtatib turish qaroridan tortib hamkorlikni batamom tugatishgacha bo‘lgan kompleks chora-tadbirlar majmuini qo‘llaydi.

## **5.2. Atrof-muhit muhofazasi**

Kombinat ushbu Siyosatda hamda Kombinatning Odob-axloq Kodeksida bayon etilgan atrof-muhitdan mas‘uliyatli foydalanish, energiya resurslaridan

samarali foydalanish, Kombinatning biologik xilma-xillikka, suv, havo va tuproq holatiga salbiy ta'sirini minimallashtirish, shuningdek chiqindi omborlari - chiqindi saqlash joylarini oqilona boshqarish va chiqindilar bilan muomalada bo'lish bo'yicha o'z zimmasidagi majburiyatlarni to'liq bajaradi va bunday majburiyatlarni Kombinatning yetkazib berish (ta'minot) zanjirida ishtirok etuvchi hamkorlariga nisbatan ham to'liq joriy etilishiga harakat qiladi.

### **5.3. Ijtimoiy mas'uliyat, mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi**

Kombinat inson huquqlariga rioya qilish, an'anaviy yashash va an'anaviy iqtisodiy faoliyat joylarda mahalliy xalq va elatlarning huquq va erkinliklari, shu jumladan, erkin, dastlabki va ongli ravishda rozilik berish huquqiga qat'iy rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda inson huquqlari himoyachilarining huquqlari, shuningdek, Kombinatning yetkazib berish (ta'minot) zanjirlarida inson huquqlariga qat'iy rioya qilinishini doimiy kuzatib borish va bunday xavf va xatarlarni istisno qilish, majburiy mehnatga jalb qilish, odam savdosi, zamonaviy qullik va bolalar mehnatidan foydalanish kabi salbiy amaliyotlarni istisno qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Kombinat o'z mehnat jamoasida xavfsiz va sog'lom ish muhitini yaratish, o'z xodimlariga nisbatan mehnat xavfsizligi va sanoat xavfsizligi sohasidagi xatarlarni doimiy ravishda baholab borish, shuningdek yetkazib berish (ta'minot) zanjirida ham tegishli xavfsizlik tartib-tamoyillarni joriy etishda o'z hamkorlariga ko'maklashish va dastak berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Kombinat va uning tizimida yaratilgan mehnat sharoitlari, xususan, sanoat xavfsizligi bo'yicha qat'iy standartlarga muvofiqlikni ta'minlashni kafolatlaydi hamda o'zining hamkor Yetkazib beruvchilaridan (ta'minotchilaridan) ham aynan shunday muvofiqlikni ta'minlash talabini ilgari suradi.

Kombinat o'z faoliyatida mazkur Siyosat qoidalariga hamda Xizmatdagi odob-axloq Kodeksida bayon etilgan ijtimoiy masalalar, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi masalalariga oid majburiyatlarga qat'iy rioya etilishini monitoring qiladi hamda boshqaradi.

### **5.4. Komplayens-nazorat xizmati**

Kombinat poraxo'rlik va korrupsiya, firibgarlik faoliyati, jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va uning yetkazib berish (ta'minot) zanjirlarida faoliyat yuritishning turli zanjirlarida Kombinat tomonidan tuziladigan barcha shartnoma va bitimlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan soliqqa oid jinoyatlarning oldini olish maqsadida mustaqil va samarali komplayens-nazorat xizmati masalalariga taalluqli majburiyatlari doirasidagi o'z faoliyatini amalga oshirishda ochiqlik, xolislik va shaffoflik, shuningdek Xizmatdagi odob-ahloq qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

## **6-bob. Kompleks tekshiruvlarni boshqarish tizimi**

### **6.1. Besh bosqichli model.**

Kombinatning yetkazib berish (ta'minot) zanjirida xatarlarni boshqarish uchun manfaatdor tomonlarning istaklari, yetakchi tarmoq tajribasi va xalqaro miqyosda tan olingan IHvaT tashkilotining rahbarlik tamoyillari – IHvaT tashkilotining Besh bosqichli modeliga muvofiq amaliyotlar, sanoatdagi eng yaxshi amaliyot na'munasi va kompleks tekshiruvlarni boshqarish tizimi (keyingi o'rinlarda

- DDMS deb yuritiladi) va kompleks tekshirishning tegishli tartib-tamoyilini qo'llaydi. Kombinatning ushbu modeli asosida:

6.1.1. Yetkazib beruvchilarni (ta'minotchilarni) mas'uliyatli tanlash bo'yicha quyidagi ishonchli boshqaruv tizimlarini:

Yetkazib beruvchilarga (ta'minotchilarga) qo'yiladigan eng minimal talablarni o'z ichiga oluvchi barchaning tanishishi uchun ochiq bo'lgan Siyosat hamda Kodeks ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi hamda matbuotda, internet tarmog'ida, ijtimoiy tarmoqlarda va Kombinatning internet tarmog'idagi rasmiy veb.sahifasida ingliz va rus tillaridagi matnlari, shuningdek zaruratga ko'ra boshqa xorijiy tillarda ham chop etilishini kafolatlaydi;

Yetkazib berish (ta'minot) zanjirini kompleks tekshirishni qo'llab-quvvatlash va o'ta muhim axborotlarni ichki va tashqi manfaatdor tomonlarga samarali uzatish uchun boshqaruvning ichki strukturasi;

Yetkazib berish (ta'minot) zanjirining nazorati va shaffofligi tizimi, shu jumladan Yetkazib beruvchilarni (ta'minotchilarni) kiruvchi yetkazib berishlar (ta'minot) zanjiri bo'yicha identifikatsiya qilish;

Har qanday manfaatdor tomonlarga xom ashyoni qazib olish, sotish, qayta ishlash va import/eksport qilish holati, shuningdek Kombinatning yetkazib berish (ta'minot) zanjirining barcha bosqichlarida ESG xatarlari to'g'risida erkin va xavfsiz shaklda xabar berish imkonini beradigan mustaqil Komplayens-nazorat xizmatining samarali faoliyat amalga oshirishini kafolatlaydi.

6.1.2. Yetkazib berish (ta'minot) zanjirida xatarlarni boshqarish jarayonini amalga oshiradi, jumladan:

yetkazib berish (ta'minot) zanjiridagi xavf va xatarlarni baholash;

ziddiyatli va yuqori xavfli hududlardan yetkazib berish (ta'minot) xavfini tahlil qilish;

yetkazib berish (ta'minot) zanjiridagi haqiqiy holatning xaritasini ishlab chiqish.

6.1.3. Aniqlangan xatarlarga nisbatan mutanosib javob berish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, shu jumladan:

yetkazib berish (ta'minot) zanjiri uchun xavfni baholash natijalari to'g'risida Boshqaruv raisi hamda Kuzatuv kengashiga tezkor hisobot taqdim etish;

komplayens xatarlarni boshqarish tizimidan foydalanish;

xatarlarni kamaytirish bo'yicha o'lchanadigan rejalarni ishlab chiqish, shu jumladan yetkazib beruvchilarni (ta'minotchilarni) tayyorlash va zaruratga ko'ra ularning vakolatlarini yanada oshirish bo'yicha boshqa loyihalar;

tuzatish chora-tadbirlarini joriy etish jarayonini monitoring qilish;

korrupsiyaviy xavf va xatarlarni boshqarish natijalari bo'yicha Boshqaruv raisi hamda Kuzatuv kengashiga har chorak yakuni bilan hisobot berish.

6.1.4. Aniqlangan (identifikatsiya qilingan xavf va xatarlar bo'yicha Kombinatning yetkazib berish (ta'minot) zanjirini jarayonlarini tekshirish uchun mustaqil tashqi auditorlarni jalb qilish bo'yicha Boshqaruv raisi hamda Kuzatuv kengashiga taklif kiritadi.

6.1.5. Quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlarni keng ommaga oshkor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi (maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash tartibini



belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda, shuningdek “Olmaliq KMK” AJning tijorat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni istisno qilgan holda):

Yetkazib berish (ta’minot) zanjirlarini kompleks tekshirish uchun zarur Siyosat, Kodeks va boshqa tartib-tamoyillar, ichki normativ hujjatlarni qabul qilish, tasdiqlash va ochiq va shaffof e’lon qilish, rus va ingliz tillarida chop etish;

Kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan shikoyatlar soni va qisqacha mazmuni;

yetkazib berish (ta’minot) zanjiridagi xavf va xatarlarni baholash natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni matbuotda, internet va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda chop etish;

xavf va xatarlarni boshqarish bo‘yicha tasdiqlangan chora-tadbirlarni matbuotda, internet va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda e’lon qilish.

Kombinat yuqorida sanab o‘tilgan axborot va ma’lumotlarni EITI talablari va tamoyillariga asoslangan holda bunday mazmundagi axborot va ma’lumotlarni oshkor qilishni maqsad qilgan.

## **6.2. Rollar va mas’uliyatlar sohasi**

Kombinatning yetkazib beruvchilarni (ta’minotchilarni) mas’uliyatli tanlash va yetkazib berish (ta’minot) zanjirini har tomonlama samarali tekshirish majburiyatlarini kundalik amaliyotga joriy etish, shuningdek DDMSni amalga oshirish bilan bog‘liq ishlarni Kombinat va uning tizimidagi bevosita ijrochilar tomonidan bu borada amalga oshiriladigan barcha faoliyat yo‘nalishlari va turlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish uchun mas’uliyat Boshqaruv raisining xavfsizlik bo‘yicha o‘rinbosari, Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmasi hamda Yuridik departament rahbari zimmalariga yuklatiladi.

Bunda, quyidagi majburiyatlar ijrosiga alohida e’tibor qaratiladi:

Yetkazib beruvchilarga (ta’minotchilarga) nisbatan qo‘yiladigan muayyan talablarni qo‘llash tartibini belgilovchi ichki normativ hujjatlarni kelishish, muvofiqlashtirish, ijrosini nazorat qilish DDMS tizimining ajralmas qismi hisoblangan instrumentlarni tasdiqlash;

- DDMS tizimining samaradorligini monitoring va tahlil qilish  
- Bir yilda kamida bir marotaba;

Muntazam ravishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Yetkazib beruvchilarga (ta’minotchilarga) qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida Kombinatning Yetkazib beruvchilari (ta’minotchilari) hamda Kombinat xodimlarini xabardor qilib turish mexanizmini ishga tushirish;

- Yetkazib berish (ta’minot) zanjiridagi mavjud va ehtimoliy xavf va xatarlarni aniqlash maqsadida baholash ishlarini tashkillashtirish va nazoratini amalga oshirish;

- Yetkazib berish (ta’minot) zanjirida aniqlangan xavf va xatarlarni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- DDMS tizimini ham chorak yakuni bilan baholash uchun mustaqil tashqi audit tekshiruvi o‘tkazilishini tashkil qilish;

- baholash natijalari va yetkazib berish (ta'minot) zanjiridagi xavf va xatarlarni kamaytirish to'g'risida Boshqaruv raisi hamda Kuzatuv kengashi oldida choraklik hisobot berish;

- yetkazib berish (ta'minot) zanjiridagi xavf va xatarlarni baholash uchun Kombinat mijozlari, yetkazib beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish, zaruratga qarab, ushbu masalalar bo'yicha Kombinatdagi ishlarni muvofiqlashtirish;

- mas'uliyatli yetkazib berish (ta'minot) zanjirini kompleks tekshirish bo'yicha yillik hisobotni tayyorlash uchun mustaqil tashqi audit tekshiruvi o'tkazilishini tashkil qilish;

- yillik tahlil asosida ichki normativ hujjatlarni takomillashtirish va dolzarblashtirish bo'yicha tegishli ichki normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy qilish ishlarini tashkillashtirish;

- DDMS tizimi bo'yicha Kombinat xodimlarini o'qitish rejasini ishlab chiqishni tashkillashtirish va ijrosini nazorat qilish.

Ushbu Siyosat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanib, Kombinatning internet tarmog'idagi rasmiy veb.sahifasida joylashtirilgan sanadan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.